

## O'QUVCHILARDA QADRIYATLI MUNOSABAT TAJRIBASINI SHAKLLANTIRISH

JARAYONI

Xaydarov Oxunjon

Qo'qon davlat pedagogik instituti o'qituvchisi

*Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash masalasi, bu jarayonda pedagogning hamda ota-onaning ushbu jarayondagi o'rni tahlil qilingan.*

*Kalit so'z va iboralar: yosh, oila, munosabat, pedagog, faoliyat, shakl, metod, texnologiya.*

## ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОГО ОПЫТА У СТУДЕНТОВ

Xайдаров Охунджен

Преподаватель Коканского государственного педагогического института

*Абстракт.. В данной статье анализируется вопрос подготовки студентов-молодёжи к духовно-нравственным и ценностным отношениям с семьёй, роль педагога и родителей в этом процессе.*

*Ключевые слова и фразы: возраст, семья, отношение, педагог, деятельность, форма, метод, технология.*

## THE PROCESS OF FORMING A VALUABLE ATTITUDE EXPERIENCE IN STUDENTS

Khaidarov Okhunjon

Teacher of Kokan State Pedagogical Institute

Abstract

*This article analyzes the issue of preparing students-young people for moral-ethical and valuable relations with the family, the role of the pedagogue and parents in this process.*

*Key words and phrases: age, family, attitude, pedagogue, activity, form, method, technology.*

Kirish. Pedagogik tafakkur paradigmaside o'quvchilarning rivojlanishi o'zbek xalqining etakchi qadriyatlari va tafakkuriga tayangan holda shakllantiriladi. Bunday qadriyatlar va tafakkur tarzi o'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayonini boshqaradi va tartibga soladi.

O'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayonida o'qituvchining faoliyati quyidagi ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi. Bu o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalar, bilih faoliyati hamda hissiy-qadriyatli munosabatlari, ya'ni qadriyatli munosabat tajribalari sifatida namoyon bo'lishi kerak. [1.126]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bugungi kunga kelib har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirgan bilimlari, ijtimoiy tajribasi ma'naviy rivojlanishiga qay tarzda ta'sir ko'rsatishini aniq bilishi lozim. Shu bilan bir qatorda, har bir o'qituvchi o'zining hissiy-qadriyatli yo'nalishiga ega bo'lgan faoliyati doirasida o'quvchilar uchun ko'proq ahamiyat kasb etadigan pedagogik faoliyat natijalarini ajrata olishi kerak. O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon shakllarini belgilash ham muhim tashkiliy-pedagogik ahamiyatga ega. Bunda dastlab o'quvchilarda shakllangan nuqtai nazarlar, mazkur nuqtai nazarning o'ziga xos jihatlarini aniqlash lozim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'qituvchining pedagogik tajribasi qanchalik katta bo'lsa, u o'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlar tajribasini shakllantirishda samarali natijaga erishadi.

O'quvchilarning mustaqil fikrlashga asoslangan nuqtai nazari ularda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayonida alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar orasida bugungi kunda ko'p kuzatilayotgan nuqtai nazar mustaqil fikrlashga asoslangan nuqtai nazardir. Shuning uchun ham o'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayonida yangi axborotlarni o'zlashtirish va o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashga intilish muhim o'rin egallaydi. [7.52]

O'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayonining asosini obyektiv borliq

haqidagi qadriyatli tasavvurlar tashkil etadi. Bu tasavvurlar aniq tarixiy asosga ega bo‘lib, o‘zining tasdig‘ini topgan, ilmiy-amaliy jihatdan sinovdan o‘tgan bilimlar, ijtimoiy tajribaga asoslangan samarali munosabat o‘rnatganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Qadriyatlarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj insonni madaniyat va ma’naviy hodisalarga ko‘proq yaqinlashishga undaydi. Pedagogik faoliyatda tabiiy, ilmiy yondashuv o‘quvchiga shaxs sifatida yondashishni taqozo qiladi. Bunday yondashuv asosida pedagogik faoliyat doirasida o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga oid ko‘nikmalar uyg‘unlashtiriladi. Bu ayniqsa maktab ta’limiga xos xususiyatadir.

N.Ortiqovning ta’biricha, agar o‘quvchi juda kuchli, an’anaviy tartiblarga asoslangan sinfda o‘qiyotgan bo‘lsa, uni bilimlar bilan qurollantirishga asoslangan qat’iy qoidalar amal qilganda o‘qituvchining nuqtai nazari asosiy, etakchi, aniqlovchi xarakter kasb etib, o‘quvchi hayotining barcha jahbalarida bu nuqtai nazar ta’kidlovchi, ustivor nuqtai nazar sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘qituvchilar o‘z kuch va g‘ayratlarini o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayoniga safarbar qiladilar. Bunday jarayonda ota-onalarning o‘z farzandlari bilan muloqotlari ularga uy vazifalarini bajartirish doirasida amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Qadriyatli munosabat tajribasi obyektiv, aniq bilimlar asosida hosil bo‘ladi va o‘quvchilarga aniq qoidalar yordamida etkaziladi. Bu jarayonda “Kuch bilimda” degan shior muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonining har qanday natijasi aniq ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. [6.122]

O‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlari, qadriyatları yoki egallagan xulq-atvor me’yorlari uning shaxsiyatida namoyon bo‘ladi. Ushbu paradigma doirasida o‘quvchi xulq-atvori aniq me’yorlar, etolonlar sifatida o‘z ifodasini topadi. Ularda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasi namoyon bo‘ladi. Bunday munosabat tajribasi insonparvarlikka asoslangan pedagogik jarayonda hosil bo‘ladi.

O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda axborotlar subyekt-subyekt munosabatlari doirasida taqdim etiladi. Uning asosini pedagogik dialog tashkil qiladi. Mazkur dialog jarayonida birinchi navbatda shaxslararo munosabatlar doirasi kengayadi hamda ushbu jarayonda turli metodlardan foydalaniladi. Jumladan, suxbat, baxs-munozara, o‘zaro muloqot, savol-javob metodlari kabilar.

Bu jarayonda o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasining samarali shakllanishi to‘laligicha axborotlarni uzatish mexanizmi faoliyatiga bog‘liq. Bunda o‘qituvchining muloqot madaniyatiga egaligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning kognitiv nuqtai nazarlari doirasida ularning o‘zbek xalqi madaniyatiga bo‘lgan qarashlari, yondashuvlarida idrok etish darajasi namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda o‘quvchining o‘ziga xos xulq-atvori aks etadi.

Har bir insonning ichki olamiga uning san’at va madaniyatga bo‘lgan munosabati ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘rinda madaniyat insonning ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydi. Uning xulq-atvorida nazokatlilik, boshqalarga nisbatan hurmat, muloyimlik, o‘z hatti-harakatlariga echim topish ustivor tarzda namoyon bo‘ladi. O‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash kundalik, o‘zining ijtimoiy harakatlarini boshqarish, ongli qarorlar qabul qilishda ifodalanadi. O‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasining namoyon bo‘lishi bilimga asoslangan holda yo‘nalganlik, shaxsiy uslubni izlashga qaratiladi.

O‘zining mavjud tajribalariga asoslangan holda taqdim etilgan bilimlarni o‘zlashtirish, o‘z amaliy faoliyatida ulardan foydalanish o‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasining dastlabki elementlari hisoblanadi. Ko‘pgina o‘quvchilar ta’lim jarayonida dastur doirasida berilgan bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanadilar. O‘qituvchi ularni mustaqil bilim olishga kamdan-kam hollardagina yo‘naltiradi. Mazkur jarayonda o‘quvchilar qadriyatli munosabat tajribasini etarlicha o‘zlashtira olmaydilar.

O‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish uchun o‘qituvchilar pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishlari kerak. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi, o‘yin ta’lim texnologiyasi, tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari, interfaol ta’lim texnologiyasi kabilalar bunga misol bo‘la oladi. Axborotlarni virtual uzatish texnologiyasidan foydalanish o‘zlashtirish va nazorat jarayonini alohida-alohida qismlar sifatida amalga oshirish uchun qulaylik tug‘diradi. Bunday sharoitda axborotlar vositasida o‘quvchilar o‘zaro bir-birlari bilan qadriyatli munosabatga kirishadilar.

Bugungi kunga kelib, o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishning oddiy shakllari samarali ekanligi nazariy jihatdan asoslab berildi. Bunday faoliyat texnik vositalar yordamida ham amalga oshirila boshlandi. Zarur bilimlarni egallaganlik mezoni kam darajada mahsuldorlikka ega bo‘lgan bilimlar bilan emas, balki intellektual tashabbuslar timsolda muayyan talablar doirasida taqdim etilgan topshiriqlarning echimi sifatida qabul qilingan muammoli vaziyat darajasida idrok etila boshlandi. O‘quvchining ochiq o‘quv vaziyatlarda bilimlar va qadriyatli munosabat tajribasini faol tarzda o‘zlashtirishi mutaxassislar tomonidan didaktik jarayonning eng katta yutug‘i sifatida baholanmoqda. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchi o‘zining shaxsiy bilimlarini qadriyatli munosabat tajribasi sifatida uyg‘unlashtiradi va namoyon qiladi. O‘qituvchining nuqtai nazarlari uning kundalik faoliyatida o‘quvchilarga bilimlar va axborotlar sifatida taqdim etiladi.

O‘qituvchining nuqtai nazar o‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy, ma’naviy nuqtai nazarlarini tahlil qilish va tushunish uchun ular tomonidan taqdim qilingan loyihamar, referatlar, mustaqil ishlarni har tomonlama o‘rganish talab etiladi. Pedagoglar o‘quvchilar tomonidan yaratilgan loyihamar va referatlarni tahlil qilish asosida ularni uch turga ajratish mumkinligini tavsiya qilganlar: axborotlikognitiv, ijtimoiy-rolli, o‘quvchilarda hosil bo‘lgan qadriyatli munosabat tajribasi. Mazkur mustaqil ishlar o‘quvchilarda shakllantiriladigan qadriyatli munosabat tajribasining umumiy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Biz ularni quyidagicha farqlashga harakat qildik: bilimlar maydoni, fikrlar maydoni, qadriyatlar maydoni. Bunday mustaqil ishlarning tarbiyaviy imkoniyatlari kengligini ham tajribalar yaqqol ko‘rsatmoqda.

Axborotli-kognitiv yo‘nalishdagi mustaqil ishlar o‘quvchilar tomonidan muayyan o‘quv fanini chuqur o‘rganish, uni hayotiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirish mahsuli hisoblanadi. Mazkur mustaqil ishlarda o‘quv predmeti doirasida o‘zlashtirilgan bilimlar va ijtimoiy tajribaning muayyan qismi o‘z ifodasini topadi. Ushbu bilimlar va tajribalar o‘quvchilarning etakchi tushunchalar, nazariyalar, qonun-qoidalar hamda o‘quv faniga oid boshqa bilimlarni o‘zlashtirishlari natijasida hosil bo‘ladi.[8.65]

O‘quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish uchun ta‘lim mazmuniga yangi ma’lumotlarini kiritish, o‘quv topshiriqlarining yangi turlarini tanlash alohida ahamiyatga ega. Bunday o‘quv materiallari yordamida o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasi shakllanib, ularning ma’naviyati boyitiladi. Oilaviy munosabatlarda insonparvarlik, milliy g‘urur, hamkorlik, o‘zaro hurmat tuyg‘ulari shakllanadi. Bu o‘rinda asosiy qadriyatlar sifatida axborotlar, bilimlar, o‘zlashtirilgan o‘quv materiallari mazmunidagi ma’naviy-axloqiy tushunchalar e’tirof etiladi. O‘zlashtirilgan bilimlarni boyitish uchun ularni qo‘llashning yangi usullari taqdim etiladi. O‘quvchilar o‘zlariga tanish bo‘lgan tushunchalar va dalillarni yangicha nuqtai nazarda turib uyg‘unlashtiradilar.

Yangilik haqida gapirganda, uning madaniyatlilik darajasi bilan mutanosibligini aniqlash lozim. O‘quvchilarning xulq-atvorlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ishlanmalarda imitatson modellashtirish an‘anasi, ya’ni faoliyat tajribasiga tayanish kerak. Mazkur ishlanmalar asosida o‘quvchilarda mustaqil hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish nazarda tutiladi. Ushbu ko‘nikmalar insonning hayotiy nuqtai nazar va mikrosotsiumdagi o‘rnini belgilashga ko‘maklashadi. Bu jarayonda o‘rganilayotgan bilimlar va axborotlar o‘quvchilarning nuqtai nazarlari va munosabatlarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Bunday o‘quv materiallari mazmunida insonparvarlik paradigmalari va milliy-ma’naviy, oilaviy qadriyatlar asos qilib olinadi. Chunki, ular o‘quvchilarda oilaga nisbatan qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Mazkur o‘quv materiallaridan foydalanishdan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad, o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri echimlar topish ko‘nikmasini tarkib toptirishdan iborat.

Muammolarning murakkablik darajasi va o‘quvchilarni shakllantirish uchun muhimligi o‘qituvchi tomonidan idrok etilgandagina maqsadga muvofiq tarzda ajratiladi. Bunday o‘quv materiallarda muammolar, vaziyat modellari, uning mazmun-mohiyati, ularni echish uchun o‘zlashtirilishi talab qilinadigan bilimlar hamda mashg‘ulot qurilishining ssenariysi aniq ifodalangan bo‘ladi.

Biz bu jarayonni qadriyatlarni yoki umuminsoniy madaniyatni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayoni sifatida asoslashga harakat qildik. Pedagogik tajribalarda o‘quv predmetiga oid ko‘nikmalarni takomillashtirish ustida ishslash tajribasi tez-tez uchrab turadi. Bunday tajriba orqali o‘quvchilarning qadriyatli munosabatlarga oid ko‘nikmalar mustahkamlanadi. Qadriyatli munosabat

tajribasini shakllantirish shaxs tafakkurining bir maromda rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida ijtimoiy rolli o'yinlar o'quvchilarning bir qator ijtimoiy rollarni bajarishga oid bilimlar hamda ko'nikmalarini o'zlashtirishlariga yo'naltirilgandir. Ularning tabiatи turlicha bo'lishiga qaramasdan, ko'zlangan asosiy maqsad, o'quvchilarda turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali qadriyatli munosabat tajribasini egallahshlariga ko'maklashishdan iborat.

Umuminsoniy qadriyatlar va shaxslararo munosabatlar doirasida o'quvchilarning bilimlari va shaxsiy dunyoqarashlarini rivojlantirishning samarali yo'llari, usullarini izlab topish alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar bиринчи navbatda hissiy qadriyatli munosabat tajribasini egallahshlari lozim. Ular o'z nuqtai nazarlarining mohiyatini anglashlari, uni muntazam takomillashtirishlari talab etiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining muhim belgilardan biri – uning o'quvchida mustaqil fikrlashni shakllantirish imkoniyatiga egaligidadir. Ijtimoiy rolli o'yinlar jarayonida o'qituvchilar shaxsga yo'naltirilgan ta'limning xuddi mana shu imkoniyatidan foydalana olishlari kerak. Bunday o'yinlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirishga imkoniyat yaratadi. Bu jarayonda o'quvchi o'zining shaxsiy fikri, qarashlari, nuqtai nazariga ega bo'ladi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, inson o'z faoliyatini bir nechta turlarga ajratishi mumkin. Lekin, ularning har biri o'zining muayyan darajalariga ega.

Qadriyatli munosabat tajribasini egallah insонning o'z kuch-quvvatini ijtimoiy madaniy jihatdan ahamiyatlari bo'lgan qadriyatlarni o'zlashtirishi, o'zidan keyingi avlodlarga uzatishi va shunday qadriyatlarni yaratishga sarflashida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda tizimli yondashuv alohida ahamiyatga ega. Uning mezonlari esa muayyan tartiblarga kiritilgan o'zgartirishlarni nazarda tutadi. Jumladan:

ta'lim mazmuni alohida qismlarining o'zgarishi;

o'quv materiallarining mazmuniga ko'ra guruhlanishi;

o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullarning o'zgarishi, mazkur usullarga xos yangi vazifalarning hosil bo'lishi kabilar.

O'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasining shakllanganlik darajasini baholash, ular tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarga nisbatan amalgalash oshiriladi.

Uch turdag'i qadriyatli-fikri yo'nalishlar xuddi shunday uch turdag'i pedagogik holatni aniqlash imkonini beradi. Ular tarkibida namoyon bo'ladigan yangilikning to'rt turi 12 ta muhim pedagogik ko'rsatkichning hosil bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O'qituvchining o'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga oid faoliyati u qo'llagan usullar va texnologiyalarda namoyon bo'ladi. O'qituvchining o'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga oid faoliyati darajasini aniqlash uchun mavjud nazariy yondashuvlarga murojaat qilish lozim. Pedagogik faoliyatning takomillashuvini kuzatar ekanmiz, u o'qituvchining ijtimoiy tajribasi bilan bog'liqligini ko'ramiz. O'quv dasturlari va o'qitish metodlarining o'qituvchi nuqtai nazarlariga mos kelishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 246 b.

Mahkamov U.I. Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishining pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 1998. – 286 b.

Pedagogika ensiklopediya. Ijild/tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.

Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.

Pedagogika: ensiklopediya. III jild. jamoa // Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 424-bet.

Бачинин В.А. Духовная культура личности. – М., 1996. – 218 с.

Тайланова Ш.З. Педагогика олий таълим муассасаси талабаларида қадриятлар тизимини шаклантариш ("Педагогика тарихи" фани мисолида): Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2012. – 176 б.

Ходжаев Б.Х. Педагогик аксиология. Ўкув қўлланма. – Т.: "Fan va texnologiya" нашриёти, 2012. – 180 б